

## ELEKTRON PORTFOLIO

Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti kafedrasi o'qituvchisi*

Rayimqulov Shaxboz Shohruh o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs talabasi*

G'ofurov Eldorjon Zokirjon o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti*

*Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada portfolio haqida tushuncha, uni yaratish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar hamda elektron portfolio raqobatbardoshligini oshirishning dolzarb vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Elektron portfolioning asosiy turlari va elementlari, shuningdek ish beruvchi tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan asosiy talablar ko'rsatib berilgan.*

**Abstract:** *The article considers the concept of portfolio, analytical data on its creation, and the electronic portfolio as an actual means of increasing competitiveness. The main types and elements of the electronic portfolio, as well as the main requirements that must be fulfilled by the employer, are shown.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается понятие портфолио, аналитические данные по его созданию, а также электронное портфолио как актуальное средство повышения конкурентоспособности. Показаны основные виды и элементы электронного портфолио, а также основные требования, которые должен выполнять работодатель*

**Kalit so'zlar:** *elektron portfolio, pedagogik portfolio, zamonaviy, qulaylik.*

**Keywords:** *electronic portfolio, pedagogical portfolio, modern, convenience*

**Ключевые слова:** *электронное портфолио, педагогическое портфолио, современность, удобство.*

## KIRISH

PORTFOLIO — so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “muhim hujjatlar papkasi” degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, portfolio mutaxassisning o'ziga xos yutuqlari jamlanmasi vazifasini ham bajaradi. Elektron portfolio kishining faoliyatida foydalanish maqsadida o'zi tayyorlagan yoki to'plagan hamda tizimga keltirgan materiallar yig'indisidir. Mazkur materiallar qog'oz yoki elektron variantda bo'lib, prezentatsiyalar, elektron resurslar, bilim

saviyasi darajasini isbotlovchi xalqaro va milliy sertifikatlar, ta'lim olgan va ish faoliyatini yurgizgan tashkilotlardan tavfsiyanomalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Portfolio kishiga ish topish va o'zi haqida ma'lumot berish uchun qulaydir va o'z hamkasblarining ilg'or ish tajribalaridan xabardor bo'lish hamda o'z tajribasini ommalashtirish imkonini beradi.

Asosiy qism: "Elektron portfolio — boshqaruv va kadrlarning kasbiy faoliyati natijalarini baholashda ko'maklashishga qaratilgan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarini qamrab oluvchi elektron resurslar majmuasi.

Portfolio quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- portfolio sayti (sayt ko'rinishidagi portfolio);
- veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- elektron taqdimot;
- natijalar papkasi.

Elektron portfolio ko'rgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega:

- zamonaviyligi;
- tezkorligi (kerakli o'zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- funktsionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb- mutaxassislarga, qiziquvchilarga o'z tajribasini namoyish etish imkoniyati) hamda o'z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o'zida doimiy ravishda to'ldirib borish mumkin bo'lgan raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

- effektivligi (kadrning o'z-o'zini baholashi, boshqaruvchi hamda ish beruvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatish);

Bu Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet tizimining o'quv jarayoniga keng joriy etish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo'lga qo'yish orqali samara berishi mumkin. Shuning uchun portfolioni tarmoqda saytportfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Portfolioning muhim jihati – kadrning kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan ilmiy izlanishlari kabilarni) namoyish etishdan iborat. Portfolio ishchiga o'z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o'z imkoniyatlarini ob'ektiv baholash va qiyinchiliklarni

bartaraf etishni rejalashtirish hamda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Portfolio resurslarini shakllantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

- tizimlilik;
- taqdimotlilik;
- yutuqlarni haqqoniy, to'g'ri baholash;
- taqdim etilayotgan axborotlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi;
- ma'lumotlarning ob'yektivligi.

Shunday qilib, portfolio pedagogik faoliyatning turli xil ko'rinishlarida (o'quv, tarbiyaviy, ijodiy, metodik, tadqiqot) o'qituvchi tomonidan erishilgan yutuqlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bir qancha mualliflar o'z maqolalarida elektron portfolioni bir nechta variantlarini taklif etishgan:

• yutuqlar portfoliosi – ushbu portfolioda ahamiyat faoliyatdagi yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlarga qaratiladi;

• taqdimot portfoliosi – kadrning eng yaxshi ishlari to'plami, ushbu portfolio yangi ishga kirayotganda, suhbatdan o'tish uchun yoki turli tanlovlarda qatnashish uchun kerak bo'ladi;

• hisobot ko'rinishidagi portfolio – biror-bir loyiha ishini tugatayotgan vaqtda bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot beradi;

• majmuaviy portfolio – yuqorida ko'rsatilgan portfolio ko'rinishlarini qamrab oladi va kadr portfoliosini namoyish etishga xizmat qiladi.

Har bir muassasa ishchisining elektron portfoliosi quyidagi asosiy turlarga yo'naltirilishi zarur:

1. Kadr haqida ma'lumotlar: portfolioning ushbu bo'limida: familiya, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili; ma'lumoti (ta'lim muassasasi nomi, bitirgan yili, mutaxassisligi va diplom bo'yicha ixtisosligi); mehnat tajribasi, ushbu tashkilotdagi ish tajribasi; malaka oshirish (kurslarda tinglangan tizim nomi, yili, oyi, kurslar problematikasi); kasbiy rivojlanish individual rejasi, unda belgilangan maqsadlar va o'z kasbiy o'sishi vazifalari, egallashi kerak bo'lgan malakalar, yaqin 2–3 yil mobaynida o'tishni maqsad qilib qo'ygan treninglari va kurslari (ischining kasbiy rivojlanish maqsadlari va vazifalari o'qitiladigan fani kasbiy standartlari, tashkilot rejasiga mos bo'lishi kerak); ilmiy va faxriy unvon va darajalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari; hukumat mukofotlari, yorliqlari, minnatdorchilik nomalari; turli tanlovlar diplomlari.

2. 2. «Ish faoliyat natijalari» (sxemalar, grafiklar va jadvallar ko'rinishida. 3 yil davomidagi o'z mutaxassislik sohasidagi yutuqlari dinamikasi, jumladan, kirish imtihonlari) — quyidagilar asosida 3 yil davomidagi:

3. • bilimlari nazorat o'lchamlari;

4. • ilmiy loyihalarda mavjudligi;

5.3. «Ish faoliyat» (ish va tajribaviy ishlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish).

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, agar har bir muassasa ishchisi yaxlit elektron portfelga ega bo'lib, barcha muhim materiallarni jamlasa, ish jarayonini tashkil etishda ahamiyatli bo'lgan sifat samaradorlikka erishish mumkin. Bundan tashqari, o'zining elektron portfelidan mustaqil foydalanishi ham, boshqa ishchilarning va IT-texnologiyalari mutaxassislarining eng yaxshi ishlanmalaridan foydalanishlari ham mumkin. Shu tariqa, elektron portfelni yaratish va mazmun bilan uni to'ldirish vaqtida, har bir tashkilot ishchisi kasbiy mahorati o'sishiga, kompyuter vositasida o'qitishga hamda o'z kasbi bo'yicha bilim darajasini takomillashtirishga erishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://genderi.org/kalit-sozlar.html?page=33>

2. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1512>

3. <https://fayllar.org/oliy-oquv-yurtidan-keyingi-talim-tizimini-yanada-takomillashti-v3.html?page=94>